

Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha

SHARTNOMA № 23460

2022 yil « 30 » may

Farg'ona shahri

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limi nomidan bo'lim mudirasi G.A.Xalilova (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi "FAR DOM" MCHJ (keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar B.Vasiyeva ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar

1. SHARTNOMA PREDMETI.

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan Farg'ona viloyati Farg'ona shahridagi 6-sonli maktab binosini joriy ta'mirlashni loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha-smeta hamda ekspertiza hujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'imglar, ajratmalar, QQSni hisobga olgan holda jami 198 989 992,00 (bir yuz to'qson sakkiz million to'qqiz yuz sakson to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qson ikki) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

3. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari to'lik bajarilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlar qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yuli bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar hakikatda bajarilgan ishlar hajmiga qarab, avans mablag'larini chegirgan xolda amalga oshiriladi.

4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 30 kalendar kun muddat ichida «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari yakunlanishi shart.

4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni loyiha-smeta hujjatlari hamda amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga asosan to'lik hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi. Loyiha-smeta hujjatlariga mos kelmagan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan qabul qilinmaydi va shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun «Pudratchi»ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi, hamda «Pudratchi»dan loyiha-smeta hujjatlariga mos ravishda qurilish ishlarini olib borishni talab qilishga haqli.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta'mirlash ishlarini bajarishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratib beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shaki-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. «Buyurtmachi» tomonidan tuzilgan dalolatnoma (qurilish ishlarini belgilagan talablarga mosligini tekshirish dalolatnomasi) asosida bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan alohida dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 3 kun muddat ichida «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi. Bartaraf etilmagan taqdirda «Pudratchi»ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi hamda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan choralar amalga oshiriladi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatda boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatining 0,5% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga penya to'laydi, lekin

bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak. Penya «Buyurtmachi» tomonidan shartnoma sharti bo'yicha qurilish ishlari yakunlanishi belgilangan kundan boshlab kechiktirilgan kun oralig'idagi muddat hisobga olingan holda bir tomonlama amalga oshiriladi.

6.3. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0,4% miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi»ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasini 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Penyalar to'lanishi taraflarni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR HOLATLARI.

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi, tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar, hukumat qarorlari va boshqa yengib bo'lmay kuch holatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI O'SHIMCHA SHARTLAR

8.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'lik korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2 Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'lik munosabalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4 Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5 Tarfning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.



9. QO'SHIMCHA SHARTLAR

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo, taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa «Buyurtmachi» joylashgan hududdagi iqtisodiy sud va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari tartibida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararlarni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha tuzildi. Shartnoma ikki tomonlama imzolaniib, hududiy g'aznachilik boshqarmasi (bo'limi)da ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

10. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI.

«IJROCHI» "FAR DOM" MCHJ	«BUYURTMACHI»
Manzil: Farg'ona sh. B.Marg'iloniy k. 35-uy Tel: 998 91 678 86 77 X'ra: 2020 8000 905 231 676 001 Bank nomi "IPAK YULI BANK" Farg'ona filiali MFO: 01168 Tashkilotning STIRi: 307 433 603 IFUT(okonx):	Farg'ona shahar Xalq ta'limi bo'limi Tel, faks: +(8 373) 244-33-53 Shg'h: 1000228603400179096300075050 Tashkilotning STIRi: 200150971. IFUT(okonx): 97600 Farg'ona shahri bo'yicha G'aznachilik bo'limmasi YuG'II: 23 402 000 300 100 001 010 Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKKM) MFO:00014 G'aznachilik bo'limmasining STIR: 201122919
 B. Vasiyeva	Mudir  Kalilova

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI HAQIDA
HUQUQIY XULOSA**
№ JJ7486586181


1. Loyihaning turi: shartnoma
2. Loyiha qisqa mazmuni: “FAR DOM” MCHJ bilan Farg’ona shahridagi 6-sonli maktab binosini joriy ta’mirlash bo’yicha 198 989 992,00 (bir yuz to’qson sakkiz million to’qqiz yuz sakson to’qqiz ming to’qqiz yuz to’qson ikki) so’mlik shartnoma
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Farg’ona shahar Xalq ta’limi bo’limi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022-yil 30-may kuni “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga qayta taqdim qilingan
4. Loyiha bo’yicha taklif: Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o’tkazish natijalariga ko’ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



Sh.Musayev

2022-yil 30-may